



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI

Esayeva Dilafruz Azamatovna

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU magistranti

esayevadilafruz@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada obrazli til vositalarining turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi ahamiyati haqida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, obrazli tilning kommunikatsiya jarayonida qo'llanishi, ularning o'zaro bir-biridan farqli jihatlari va obrazli til vositalarining dunyo tilshunoslari tomonidan o'rganilgani xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: troplar, metafora, konseptual metafora, metonimiya, perifraza.

Аннотация: В статье даются некоторые сведения о типах образных языковых средств, их специфических особенностях и значении в лингвистике и литературоведении. В книге также подробно рассматривается использование образных средств языка в процессе коммуникации, их отличия друг от друга, а также изучение средств образного языка лингвистами всего мира.

Ключевые слова: тропы, метафора, концептуальная метафора, метонимия, перифраза.

Abstract. This article provides some information about the types of figurative language devices, their specific characteristics, and their importance in linguistics and literary studies. It also discusses in detail the use of figurative language in the communication process, their differences from each other, and the study of figurative language devices by linguists around the world.

Keywords: tropes, metaphor, conceptual metaphor, metonymy, periphrasis.


Har qanday tilda uning imkoniyatlarini, jozibadorligini ko'rsatib beruvchi vositalar bo'lib, ular shu tilning qanchalik darajada boyligi va ko'lamdorligini ko'rsatib beradi. Qadim zamonlardayoq insoniyat bir- birlari bilan muloqot qilish chog'ida muayyan narsa, buyum, hodisa, tushuncha, yoki voqelikni nomlash, ularni sodda yo'sinda atab qolmasdan, shu voqelik va hodisalarga qo'shimcha ma'no, bo'rttirish, o'xshashlariga qiyoslash, o'ziga xos belgilari asosida ifodalab kelganlar. Nutqning bu tarzda ifodalanishi kommunikatsiya jarayonini ta'sirchan, bir xillikdan holi, salbiy yoki ijobiy bo'yoqdorligini oshirish uchun xizmat qilgan. Shu bilan birgalikda, figurativ tildan foydalanish asnosida insonlarda obrazli fikrlash ko'nikmasi shakllanib, tasviriy va konseptual tafakkurlari rivojlanib boradi. Aynan shu asnoda, vaqtlar o'tishi bilan obrazli til vositalarining ahamiyati tobora takomillashib kelgan.

Obrazli til – bu tilning badiiy estetik va hissiy jihatdan ifodalangan shakli bo'lib, u so'zlar, iboralar, jumlar va matnlarning ma'nosini yanada boyitish, chuqurlashtirish ta'sirchanligini oshirish, kommunikativ vaziyatlarda esa, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida yangi aloqalarni yaratish uchun xizmat qiladi. Obrazli til xususiyatlari nafaqat o'zbek, balki dunyo tillarining tilshunosligi va adabiyoti uchun muhim vosita bo'lib, ushbu xususiyat shu tilda muloqot qiluvchilarning tarixi, urf- odatlari, tafakkur tarzi va o'sha jamiyatga xos an'analarni o'zida mujassam etadi.



Obrazli til tilshunoslik va adabiyot sohalari uchun asosiy obyekt hisoblanib, kontekstning strukturasi, semantikasi va pragmatikasini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Aslini olganda obrazli til vositalariga har qadamda duch kelish mumkin. Masalan, kundalik hayotda, ishxonada, ommaviy axborot vositalarida va hokazo. Ilmiy jihatdan tilshunoslikda obrazli tilning ikkinchi nomi *troplar* deb ham nomlanib, u dastlab mil. av. IV asrda yunon olimi Aristotel tomonidan qo'llangan [O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 7: 661]. O'zbek tilshunosligida obrazli tilning bir nechta turi keng miqyosda ishlatiladi. Jumladan, metafora, metonimiya, perifraza, tasviriy ifodalar va iboralar shular jumlasidandir.

Metafora – qisqa va aniq qilib aytganda “ko'chirma” demakdir. Mashhur yunon faylasufi Aristotel metaforalarga shunday ta'rif beradi: *“Oddiy so'zlardan biz faqatgina yangi ma'no tushunishimiz mumkin. Metaforalar esa uni to'liq ta'sirchan qilib tinglovchiga yetkazish yoki anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi”*. Darhaqiqat, metaforalar tilshunoslikda ham adabiyotshunoslikda ham keng qo'llanib, nutqni obrazli qilishga yordam beradi, kishida emotsiya, estetik zavqni uyg'otadi, shu bilan birga, ona tilimizdagi inson va tabiat o'rtasidagi hodisalarni eng nozik nuqtalarigacha ifoda eta olishga qodir bo'lgan rang-barang tasvirlarni ongimizda yaqqol namoyon etadi. *Masalan, qish fasli kelishi bilan dala va qirlar kumush choyshabga burkanadi*. Bunday nozik tasvirlar tasviriy matnlar va she'riy asarlarda juda ta'sirchan tasvirlanadi. Aslida choyshabga o'ranish, burkanish insonga xos holat. Ammo tasvir holatiga o'zgacha tus, joziba baxsh etish maqsadida inson holati tabiat tasviriga “ko'chirilgan”. Tilshunoslik nazariyasida “konseptual metafora” tushunchasi mavjud bo'lib, bu nazariya ilk bor 1980-yilda Jorj Lakoff va Mark Jolsonlar tomonidan “Metaphors We Live By” (Biz bilan yashayotgan metaforalar) nomli asarida taklif qilingan. Asarda takidlanishicha, konseptual metafora nazariyasining asosiy maqsadi, metaforalar tilning uslubiy xususiyati bo'libgina qolmasdan, balki bu fikrning o'zidir. [Ya'ni ular inson ongida avtomatik tarzda ishlab chiqariladigan fikrlar majmuasidir [Lakoff, G.] Asarda oddiy metafora va konseptual metafora quyidagicha farqlanadi:



Metonimiya – bu so'z yoki iboralarning bevosita bog'liqlik asosida boshqa ma'noni anglatishi, ya'ni qism va butun, sabab va natija, joy va tashkilot kabi aloqadorlik shakllari orqali amalga oshadigan semantik jarayondir. narsa va hodisalarni boshqa nom bilan nomlashdir. Metonimiya hodisasi ancha murakkab ma'no ko'chish hodisasi bo'lib, o'z navbatida ham tilshunoslar, ham



adabiyotshunoslarning e'tiborini o'ziga jalb etib keladi. Metonimiya tilni ixcham va samarali qilishga xizmat qilib, kundalik nutqimizda tez-tez qo'llanadi va tilimizning ma'no yuksakligini oshirishga xizmat qiladi. *Masalan, bir kosani simirdim, auditoriya jonlandi, stadion hayajonga tushdi.*

Metonimiya haqida Aristotel o'zining "Poetika" va "Ritorika" asarlarida nutqni bezash vositasi sifatida tasniflaydi. XX asrga kelib rus tilshunosi Roman Yakobson metonimiyani til tizimining muhim qismi sifatida tahlil qilib, uni sintagmatik bog'liqlik asosida aloqadorlik deb tasniflaydi [Якобсон Р.]

AQSH tilshunoslari esa metonimiyani inson tafakkurining asosiy vositasi deb ko'rsatadilar. Ularning fikricha, metonimiya faqat nutq bezagi emas, balki inson ongida dunyoni tushunish vositasi va odamlar ushbu vositalar orqali tushunchalarni soddalashtiradi va konkretlashtiradi [Lakoff, G 242]. Metonimiya adabiyotshunoslik yo'nalishi uchun ham eng kerakli vosita bo'lib, obraz yaratish, ma'noni chuqurlashtirish, ramziy ifodalar berish maqsadida foydalaniladi. Ernest Hemingueyning "Chol va dengiz" asarida "dengiz" insonning taqdiri va hayotning ramziy ifodasi sifatida metonimiya qo'llangan. Shekspirning "Makbet" asarida gunoh va vijdon azobining metonimik belgisi sifatida "qonli qo'llar" iborasi ishlatilgan.

Nutqning obrazlilikini ta'minlovchi vositalardan yana biri – bu perifrazalardir. Perifraza, perifraz (yun.periphrasis – tasviriy ibora; kinoya, istiora) – borliqdagi narsa va voqealarning nomini to'g'ridan to'g'ri atamasdan, ularni bilvosita, ya'ni turli xil so'z yoki tasviriy vositalar bilan ifodalash [O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi]. Masalan, "o'qituvchi" o'rnida "ta'lim fidoyilari", "shifokorlar" o'rnida "salomatlik posbonlari". Perifrazalar emotsional – ekspressivlik ma'nolarini o'zida mujassamlashtirgan, so'zlovchining xarakter xususiyatini ochib beruvchi, tasviriy obrazlar orqali ifodalangan erkin ibora yoki butun jumla shaklida ma'noga ega bo'lgan tilning uslubiy vositalardan biri sifatida talqin qilinib kelingan [Ahmadova]. A.Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da perifrazalarga quyidagicha izoh berilgan: "Narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma'lum kontekst, vaziyatdagi xarakterli belgi – xususiyati orqali ifodalaydigan stilistik priyom. Masalan, dala malikasi, (makkajo'xori)" [5: 67]

Xulosa o'rnida takidlash lozimki, figurativ tilni yuzaga keltiruvchi vositalar tilshunoslikda, shuningdek, adabiyotshunoslikda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu vositalarsiz nutq jarayonida xilma-xillik, emotsional-ekspressivlikka erishish qiyin. Adabiyotshunoslikda esa badiiy matnning mohiyati, qahramonlar va peyzaj tasvirini jozibador, real ifodalash mushkul. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda figurativ til vositalari og'zaki va yozma nutqqa ko'rkamlik, qisqalik va mazmundorlik berish bilan birga, undan foydalanuvchilarning tafakkur tarzini boyitishda, kreativlikni oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev.A. O'zbek tilida ekspressivlik ifodalanishi. – Toshkent, 1983.



2. Ahmadova.U.Perifraza atamasi va uning nomlashdagi o'rni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science. Scientific Journal Impact Factor. Volum:8. 432-442-b.
3. Dadaboyev.H. O'zbek terminologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
4. G.Lakoff, M.Johnson. Metaphor we live by. Chicago – University of Chicago Press. 1980.
5. Hojiyev.A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent, 1985.
6. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
7. O'zME.Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
8. <https://pres.uchicago.edu>
9. <https://bibliotekanauki.pl>
10. <https://www.poesed.com>
11. <https://www.grammarly.com>

OLMOSHLARNING KONTEKSTDA QO'LLANISHI

Sharipova Xumora Zayniddinovna

Alisher Navoiynomidagi ToshDO'TAU magistranti

sharipovaxumora0@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada olmosh so'z turkumi pragmatik yondashuv asosida tahlil etilgan bo'lib, ularning kontekstda qanday semantik va kommunikativ vazifada kelishi o'rganiladi. Ishda turli kontekstlarda olmoshlarning qo'llanishiga :r misollar asosida ularning funksional xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, mavzuda olmoshlarning zamonaviy adabiy til va og'zaki nutqdagi qo'llanilishiga oid misollar orqali ularning stilistik imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: pragmatika, kontekst, olmosh, kommunikativ vaziyat, til birliklari, lingvistik muhit.

Аннотация. В данной статье местоимения рассматриваются с прагматической точки зрения, изучается их семантическая и коммуникативная функция в контексте. На основе примеров использования местоимений в различных контекстах раскрываются их функциональные особенности. Также в работе приведены примеры из современного литературного языка и устной речи, демонстрирующие стилистические возможности местоимений.

Ключевые слова: прагматика, контекст, местоимение, коммуникативная ситуация, языковые единицы, лингвистическая среда.

Abstract. In this article, pronouns are analyzed from a pragmatic perspective, focusing on their semantic and communicative functions in context. The functional characteristics of pronouns are explored through examples of their use in various contexts. Additionally, the article presents examples from modern literary language and spoken discourse to illustrate the stylistic potential of pronouns.

Keywords: pragmatics, context, pronoun, communicative situation, language units, linguistic environment.

Tilshunoslikda olmoshlar shaxs, predmet yoki belgilarning nomini bevosita aytmasdan bildiruvchi so'zlar sifatida grammatik jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, biroq ularning kontekstga bog'liq semantik va kommunikativ funksiyalari, xususan, pragmatik yondashuv :rasida olib boriladigan tahlillari hozirgi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.



DÜŞÜNCELER	
Rahmonova Shahlo Rashidovna. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAOL AYOL TASVIRI	135
Abdullayeva N.M. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	144
Заки Арсланович Алибаев. СОВРЕМЕННАЯ БАШКИРСКАЯ ПОЭЗИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	150
Акжолова Таңнұра Нурбековна. КАРЫЛАРГА БОЛГОН МАМИЛЕНИН ЖОМОКТОРДО КАМТЫЛЫШЫ	158
Begmatova Dildora Abdunematovna. MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI AYRIM MAQOLLAR TASNIFI	163
Erkinova Madinaxon Umid qizi. XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI	171
Mansurova Yulduz Faxriddinovna. MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI	175
Nizomjonova Durdona Nizomjonovna. TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNIYNING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)	179
Qurbonboyeva Mohidil Isroil qizi. "ARBAIN" VA "NAZM UL-JAVOHIR" DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA	184
Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi. O'ZBEKISTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI	189
Avezova Maktuba To'rayevna. YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI	193
Мухаббат Масадикова Гайбуллаевна, Қойшыбай Арайлым. TÜRK HALK HİKAYELERİNDE ANLATI YAPISI	198
Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna, Almanova Sumbula Usmanovna. ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI	205
II SHU'BA. HOZIRGI TURKIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Ravshanxo'ja Rasulov. TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK	213
Mirzaqulov Tursunali O'tayevich. TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA	218
Е.М. Молдасанов, Абдувалитов Н.Б. АНА ТІЛІНІҢ СӨЗ СЫРЫ	222
Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi. TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI	227
Esayeva Dilafruz Azamatovna. ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI	233
Sharipova Xumora Zayniddinovna. OLMOSHLARNING KONTEKSTDA QO'LLANISHI	236
Umarova Diafruz Razzakberdiyevna. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI	239

